




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2022



6/2022



EXACT AND NATURAL SCIENCES		
Турдиев Х.Х., Холиков С.Х., Темирова М. Х.	Смешанная задача для интегро-дифференциальных гиперболической систем первого порядка с памятью	3
Abdullaev J.I., Ibragimov H.H.	Pifagor va Eyler g'ishtlari	10
Жалолов О.И., Исомиддинов Б.О.	Построение оптимальных по порядку сходимости кубатурных формул типа Эрмита в пространстве Соболева	16
Jumayev J.	Transport masalasini Mathcad tizimida yechish	27
Raxmatova N.J.	Inverse coefficient problem for the 1d fractional diffusion equation with initial-boundary problem	32
Nurolliyev N.Sh.	Methods and analysis of operating with scientific laboratories to investigate the optical properties of zinc oxide nanorods	41
Хаятов Х.У.	Построение квадратурных формул с помощью оптимальной интерполяционной формулы в пространстве С.Л.Соболева $\tilde{W}_2^{(m)}(T_1)$	50
Babaev S.S., Amonova N.A.	To construct basis functions in $W_2^{(1,0)}$ space for finite element method for 1d two-point boundary-value problems	57
LINGUISTICS		
Jumayev E.B., To'xtayeva M.O.	O'zbek adabiy tilida so'roq gap va o'zlashtirmalik	63
Kambarova M.	Classification of architecture and construction terms for the national corpus	69
Kazakov I.R.	Frazeologiyada millat tili va madaniyati tavsifi	73
Radjabov R.R.	Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar	77
Rabieva M.G'.	Kinodiskurs yaxlitligini ta'minlashda verbal-vizual komponentlar va ularning ahamiyati	81
Saidov S.S.	Ikkinchi til o'rganishda ekstraversiyaning foydalari	86
Xolova Sh.D.	Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm: tasnif va tadqiqot tahlili	92
Usmonov A.K.	Bog'lovchilarning pleonastik qo'llanishining stilistik xususiyatlari	98
Жаббарова Ю.Х.	Қариндошлик терминлари иштирокидаги прагматик коннотация	103
Нурова Ю.У.	Паремалардаги озиқ-овқат номлари этнолингвистика объекти сифатида	109
Раджабов Н.Н.	Инглиз тилида унли фонемаларнинг позицион кўринишлари	114
Рўзиев Я.Б.	Ноқардош тилларда иккинчи тур ўзлаштирмалик ва микромагн	121

UDK: 811.512.133

**XORIJIY TILSHUNOSLIKDA MATN TUSHUNCHASI VA UNDAGI SINTAKTIK-
SEMANTIK TAHLIL**

Jumayev Erkin Boltayevich

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Jumayeva Gulruxsor Erkin qizi

*Buxoro pedagogika instituti talabasi
(e-mail: muniraomonovna@gmail.com)*

Annotatsiya. Maqolada xorijiy tilshunoslikda matn tushunchasi haqidagi qarashlar va undagi sintaktik semantic jihat ingliz tilidan olingan misollar asosida tahlil qilinadi. Matnni eng yirik sintaktik birlik deb e'tirof etish uning jumladan til va nutqqa munosabatni belgilashni taqozo etadi. Matnning gap bilan funktsional jihatdan o'xshashligi ya'ni ikkalasining ham fikr ifodalash vositasi ekanligidan gapga nisbatan qo'llangan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Ma'lumki gapda umumiy va xususiy (virtual va aktual) jihatning inobatga olinishi uning faqat nutq birligi emas, til sistemasiga kirishini ham ko'rsatgan edi. Matnga ham shu nuqtai nazardan yondashiladi. Shu bilan birga maqolada matn tarkibiga kiruvchi gaplarning o'zaro bog'lanishi, uning lug'aviy va grammatik vositalar orqali ifoda etilishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: matn, mikromatn, makromatn, potensial matn, aktual matn, morfologik birlik, yaxlitlik, parallelism, ellipsis, pro-form, konseptual munosabat, semantic bog'liqlik

Аннотация. В статье анализируются взгляды на понятие текста в зарубежной лингвистике и его синтаксико-семантический аспект на примере примеров из английского языка. Признание текста крупнейшей синтаксической единицей требует определения отношения его предложения к языку и речи. Тот факт, что текст функционально подобен предложению, то есть оба они являются средством выражения мысли, основан на критериях, применяемых к предложению. Известно, что учет общего и конкретного (виртуального и актуального) аспектов в предложении показал, что оно является не только единицей речи, но и частью языковой системы. Текст также рассматривается с этой точки зрения. В то же время в статье показана взаимосвязь предложений, входящих в текст, ее выражение с помощью лексических и грамматических средств.

Ключевые слова: текст, микротекст, макротекст, потенциальный текст, актуальный текст, морфологическое единство, целостность, параллелизм, эллипсис, проформа, концептуальная связь, смысловая связь.

Abstract. The article analyzes the views on the concept of text in foreign linguistics and the syntactic-semantic aspect of it based on examples taken from the English language. Recognizing the text as the largest syntactic unit requires determining the relation of its sentence to language and speech. The fact that the text is functionally similar to the sentence, that is, both of them are a means of expressing ideas, is based on the criteria applied to the sentence. It is known that taking into account the general and specific (virtual and actual) aspect in the sentence showed that it is not only a speech unit, but also part of the language system. The text is also approached from this point of view. At the same time, the article shows the interconnection of the sentences included in the text, its expression through lexical and grammatical means.

Key words: text, microtext, macrotext, potential text, actual text, morphological unity, integrity, parallelism, ellipsis, pro-form, conceptual relationship, semantic connection

Kirish. Ma'lumki xorijiy tilshunoslikda matn atamasining qo'llanilishi 20-asrning 40-yillari oxiriga to'g'ri keladi. Bu tushunchaning paydo bo'lishi gapni o'rganish jarayonida undan katta sintaktik birlikka ya'ni o'zaro bog'langan gaplar guruhiga e'tibor berish bilan bog'liq. Adadi benihoya ko'p, jug'rofiyasi nihoyatda keng bo'lgani bois mazkur maqolada asosan ingliz, nemis qisman rus tiliga doir tadqiqodlardan ayrimi xususida qisqacha fikr yuritiladi.

Asosiy qism. 1947 yilda A.I. Belich shunday deb yozgan. Grammatik hodisalarni o'rganishda tilshunoslar tomonidan o'zaro bog'langan gaplar guruhiga ham e'tibor berish kerakligi uqtirilmoqda. Bunday guruh tarkibidagi gaplarning mazmunan tugallanganligi kontekstga bog'liq bo'lib o'zaro mazsus bog'lovchilar bilan birikadi.

Yirik olim G'.N.Zikrillayev esa o'zining "Ruh va til" monografiyasida 1948 yilda N. S.Pospelov tomonidan bayon qilingan fikrlar yanada qat'iyiligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Bunday *murakkab sintaktik butunlikni* alohida sintaktik birlik hisoblash darkor. Sintaktik tadqiqotlarda yetarli mustaqillikka ega bo'lmagan gapga emas, kontekstga u qadar bog'liq bo'lmagan murakkab sintaktik butunlikka asoslanish lozim. Negaki murakkab sintaktik butunlik funktsional va mantiqiy- mazmuniy jihatdan gapdan farq qilib tuzilish jihati uni alohida sintaktik birlik deb atash imkonini beradi. Aynan murakkab sintaktik butunlik asar muallifining tugallangan fikrini ifodalaydi.

K. Boost 1949 yilda mazkur butunlikni gaplar hamkorligi (*Satzgemeinschaft*) deb nomlab uning tarkibidagi gaplar o'zaro lug'aviy takror, artikl, olmosh, ellipsis, fe'ning zamon shakllari, takroriy bog'lovchi, so'roq so'z bilan bog'lanadi. Bir gapni ikkinchisiga ulaydigan chizimcha shu qadar ko'pki gaplar o'zaro shu qadar chatishib ketganki alohida olingan har bir gapni boshqasi bilan uzviy bog'langan deb xulosa chiqarishga to'g'ri keladi deb yozadi.

Matnni eng yirik sintaktik birlik deb e'tirof etish uning jumladan til va nutqqa munosabatni belgilashni taqozo etadi. Matnning gap bilan funktsional jihatdan o'xshashligi ya'ni ikkalasining ham fikr ifodalash vositasi ekanligidan gapga nisbatan qo'llangan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Ma'lumki gapda umumiy va xususiy (virtual va aktual) jihatning inobatga olinishi uning faqat nutq birligi emas, til sistemasiga kirishini ham ko'rsatgan edi. Matnga ham shu nuqtai nazardan yondashiladi. Shu munosabat bilan V. Dreslarning fikri diqqatga sazovor: *Matn ham til sistemasi birligi* (potensial matn) ham *aniq, muayyanlashgan* (aktual) matnga bo'linadi. Bunday xulosa chiqarishga matn tuzilishiga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar imkon beradi. Bu tadqiqotlarda matn tarkibiga kiruvchi gaplarning o'zaro bog'lanishi, uning lug'aviy va grammatik vositalar orqali ifoda etilishi shuningdek matnda tema-rema zanjirining qoliplari ko'rsatib beriladi. Bular barchasi murakkab sintaktik birlik (matn)ni o'ziga xos ichki tuzilish (tartibot) va muayyan qoliplarga ega bo'lgan sintaktik birlik deb atash imkonini beradi. Shunday qilib matn faqat nutq birligi emas, til birligi ham hisoblanadi.

Ingliz tilshunos olimlari M.A.K. Haliday hamda Hasan,R lar fikricha matn 7 ta standart asosida kommunikativ hodisa sifatida shakllandi. Shulardan biri Cohesion (tuzilish jihatdan yaxlitlik) deb nomlanib, unda badiiy matnning morfologik xususiyatlari, morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar nazarda tutiladi. Bunda morfologik birliklarning estetik vazifasi asosiy o'ringa ko'tariladi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deyilganda maxsus so'z shakllari vositasida, shuningdek, ma'lum bir Grammatik ma'no va vazifaga ega bo'lgan so'z shakllarini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishi tushuniladi.

Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Gapdan yirik butunlik lisoniy jihatdan tahlil qilinganda ana shunday birliklar ajratilishi, qaysi turkumga oidligi kimning nutqida, kimga nisbatan, nima maqsadda qo'llanganligi, qanday vaziyatda ishlatilganligi e'tiborga olinishi zarur.

Olimlarning fikricha Cohesion (tuzilish jihatdan yaxlitlik) tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'lib o'rganiladi.

1. Recurrence (lug'aviy takror)
2. Junction (bog'lash)

Lug'aviy takrorda matnning xususiy ko'rinishi bo'lmish gap tarkibidagi elementlar o'zgarishsiz to'g'ridan-to'g'ri takrorlanish orqali matndagi ekspressivlik-emotsionallik ifodalanadi.

Harry: "You let the **troll** in?"

Quarrel: "Certainly. I have special gift with **trolls** you must have seen what I did to the one in the chamber back there? Unfortunately, while everyone else was running around looking for it, Snape who already suspected me, went straight to the third floor to head me off and not only did my **troll** fail to beat you to death, that three headed dog didn't even manage to bite Snape's leg off properly." (Rowling, 1997: 210).

Harry: "Sen **trolni** ichkariga kiritdingmi ? "

Quarrel: "Albatta, meni **trollar** uchun maxsus sovg'am bor, orqa kameradagi biitasini nima qilganimni ko'rgan bo'lsang kerak ? Afsuski, hamma uni qidirib, yugurib yurganda, Sneypp mendan allaqachon shubhalanib bo'lgan edi. U mening boshimni uzib olish va seni o'lguncha do'pposlash uchun to'g'ri uchinchi qavatga chiqayotganida hattoki uch boshli it ham Sneyppning oyog'ini tishlay olmag'an."

Lug'aviy takrorning yana bir ko'rinishi **Partial recurrence** (qisman lug'aviy takror) bo'lib, bunda matn tarkibidagi bir so'z ikkinchi marta ma'lum bir morfologik vositaning qo'shilishi orqali boshqa so'z turkumiga o'zgarishi tushuniladi.

*Christina has a **beautiful** voice, so she can sing any songs **beautifully**.*

*Kristinaning **chiroyli** ovozi bor, shuning uchun ham u xoxlagan qo'shigini **chiroyli** kuylay oladi.*

Matnning tuzilishi jihatdan yaxlitligini ta'minlovchi navbatdagi sintaktik hodisalardan biri Sintaktik Parallelism (yonma-yon boruvchi)dir. Parallelism ikki hodisani yonma-yon qo'yib tasvirlash orqali ularni bir-biriga qiyoslash usuli bo'lib, undan tasvir etilayotgan ob'yektga tinglovchini diqqatini qayta tortish maqsadida foydalaniladi. Parallelizmning asosiy vazifasi fikrga izoh berish, unga tinglovchini to'la ishonтира olishdan iborat.

*The steel pipe crosses windswept plains and endless miles of delicate tundra that tops the frozen ground. It **weaves** through crooked canyons, **climbs** sheer mountains, **plunges** over rocky crags, **makes** its way through thick forests, and **passes** over or under hundreds of rivers and streams. (TOEFL Handbook, 2002: 271)*

*Po'lat quvurlar muzlagan nozik tundraning cheksiz millari va shamolli tekisliklari ustidan kesib o'tadi. U qiyshiq kanyonlarda **to'lqinlanar**, tikka tog'larga **tirmashib chiqar**, toshli qoyalarga **sho'ng'ir**, qalin o'rmonlar orqali o'z yo'lini **topar**, va yuzlab daryo hamda irmoqlarning osti yoki ustidan **o'tardi**.*

Matnning sintaktik yaxlitligini taminlashda olmoshlar ham muhim o'rin tutadi. Ushbu hodisa ingliz tilshunosligida **Pro-form** deb nomlanib, unda olmosh(lar) o'zi qo'llangan gapning oldingi yoki keying gap(lar) bilan bog'liqligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi va matn hosil bo'lishida ishtirok etadi.

*Albus Dumbledore had got to his feet. **He** was beaming at the students, **his** arms opened wide, as if nothing could have pleased **him** more than to see them all there. (Rowling, 1997: 91)*

*Albus Dombldor tiz cho'kishga majbur bo'ldi. U qo'llarini keng ochgan holda talabalarga qarab nur sochardi, go'yoki ularning hammasini bu yerda ko'rishdan ortiq hech narsa **uni** bu darajada quvontira olmasdi.*

Ellipsis (yun.tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining ma'lum maqsad bilan tushib qolish hodisasiga aytiladi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod – lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo'lib, badiiy matnga ham xuddi shu – jonli nutqqa xos tabiiylikni ta'minlash maqsadida olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis qaysi gap bo'lagi ellipsisga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi bilan izohlanadi. Bunda o'ziga xos ixchamlik, tejamkorlik va ifodalilik yuzaga keladi.

*The **milk** couldn't be used. **All** was sour. (Halliday, 1976: 155)*

***Sutni** ishlatib bo'lmas edi. **Hammasi** achigan edi.*

Matnning tuzilish jihatidan yaxlitligini ta'minlovchi sintaktik hodisalardan yana biri **Junction** (bog'lash)dir. Matn yaratilishining ushbu bosqichida asosiy vazifa bog'lovchi vazifasidagi leksik birliklar zimmasida bo'lib, ular vazifasidan kelib chiqqan holda 1 ta, mazmuniy jihatiga ko'ra esa 4 ta toifaga bo'lib o'rganiladi. Vazifa nuqtai nazaridan ushbu bog'lovchilar matnning xususiy ko'rinishi, alohida turi bo'lmish gap tarkibidagi komponentlar brikuvini hamda matn tarkibidagi gapning oldingisi yoki keyingisi bilan bog'liqligini ta'minlash uchun xizmat qilib keladi. Mazmuniy jihatdan esa 4 toifaga bo'lingan holda yuqorida zikr etilgan komponent va gaplarni bir-biriga munosabatini belgilaydi.

1. Conjunctions- teng, birlashtiruv munosabatini ifodalab keluvchi bog'lovchilar.

*Jill, John **and** Sim made their way into the tunnel in front of them. (Adirex, 1995: 253)*

*Jill, John **va** Sim oldildardagi tunnelga yo'l olishdi.*

1. Disjunctions- ayiruv munosabatni ifodalab keluvchi bog'lovchilar.

*Benjamin is going to buy either a digital camera **or** an MP3 player with this money.*

*Benjamin bu puliga raqamli kamera **yoki** MP3 pleyer sotib olmoqchi.*

2. Contrajunctions- zid munosabatni ifodalab keluvchi bog'lovchilar.

*Today there are no silver coins made for general circulation. **However**, a certain number of special part silver coins are still minted for sale to collectors. These sell at much higher prices than the face – value of the coins. (TOEFL Handbook, 2002: 220)*

*Bugungi kunda kumush tangalar umumiy muomalaga chiqarilmaydi. **Lekin** kolleksionerlar uchun ma'lum miqdorda maxsus kumush tangalar zarb qilinmoqda. Bu tangalar haqiqiy qiymatidan ancha yuqori narxlarda sotiladi.*

3. Subordinations- sabab munosabatini ifodalab keluvchi bog'lovchilar.

***Because** meteorites were formed during the early life of our solar system, they offer valuable information about the history of the earth. (TOEFL Handbook, 2002: 221)*

Meteoritlar Quyosh sistemamizdagi dastlabki hayotida paydo bo'lganligi sababli, ular Yer tarixi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Matn yaratilishida 7 standartning ikkinchisi Coherence (semantik bog'liqlik) hodisasi bo'lib, unda matnning relyatsion strukturasi ya'ni tarkibiy qismlari orasidagi mazmuniy munosabat tushiniladi. Tilshunos olim De Bogrande va Dressler matndagi Coherence (semantik bog'liqlik) mikromatn tarkibiy qismlarining kontseptual munosabatlar majmuidir. Bunda matn tarkibidagi so'z yoki gaplarning mantiqiy ketma-ketligi, davomiyligi muhim o'rin tutadi degan fikrni ilgari suradi. Sriduandao esa matndagi mantiqiy izchillikning hech qanday sintaktik qurilmalarsiz amalga oshishini undagi ruhiy hodisa sifatida baholaydi.

Teacher: Could you tell me a little bit about your neighbor?

Student: The Roberts have three children. Julie is the oldest daughter.

Joey is a Wednesday child. Jinny is the youngest member of the family.

Teacher: Anything else?

Student: Their servant is very interfering.

O'qituvchi: Qo'shningiz haqida biro z gapirib bera olasizmi ?

Talaba: Robertlarning uchta farzandi bor. Julie eng katta qizi. Joy eng sho'x bola. Jinni oilaning eng yosh a'zosi.

O'qituvchi: Yana bir narsa bormi ?

Talaba: Ularning xizmatkori burnini hamma narsaga suqaveradi.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida matnga dastlab asosan semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan uni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendentsiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko'chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. Shundan kelib chiqqan holda matn yaratilishning qolgan intentionality (maqsadlilik), acceptability (idrok qilish), informativity (informativlik), situationality (vaziyatlilik) va intertextuality (inertekstuallik) kabi standartlarini bevosita matnning antropotsentrik tadqiqi bilan bog'liq hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki yuqorida tilga olingan standartlarda asosiy e'tibor matnga nisbatan uning yaratuvchisi va idrok etuvchisiga ya'ni insonga qaratiladi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, har qanday matn zamirida borliqdagi muayyan mavjudot, voqea-hodisa, u yoki bu fakt, vaziyat haqidagi hukm yotadi. Bu esa matndagi so'z va gaplar shuningdek matnning o'zi ham yaxlit holda borliq bilan uzviy bog'langanligini ko'rsatadi. Binobarin borliq bilan munosabat har qanday matnning zarur belgisi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Werlich E. (1979), *A Text Grammar of English*, Heidelberg, Quelle & Meyer: 17-26.
2. De Beaugrande R.A., Dressler W.U. (1981), *An Introduction to Text Linguistics*, London & New York, Longman: 1-13 (una sintesi disponibile all'indirizzo: http://www.beaugrande.bizland.com/introduction_to_text_linguistics.htm).
3. Van Dijk T.A. (1977), *Text and Context. Explorations in the Semantics and Pragmatics of Discourse*, London & New York, Longman: 1-15; 93-129.
4. Halliday M.A.K., Hasan R. (1976), *Cohesion in English*, London & New York, Longman: 1-30. (M.A.K. Halliday, R. Hasan, *Cohesion in English*, London, Longman, 1976;
5. M.A.K. Halliday, *An Introduction to Functional Grammar*, Second Edition, London, Edward Arnold, 1994)
6. Zikrillayev G'. *Ruh va til. –Toshkent: Fan, 2018. – 464 b.*
7. Azimova M. "Matn lisoniy ob'ekt sifatida", Andijon – 2016